

DAVLAT KORXONALARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI TAKOMILLASHTIRISH VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH ("O'ZTRANSQAZ" AJ MISOLIDA)

Ibratov Ulug'bek Baxtiyor o'g'li

O'zbekiston Respublikasi

Bank-moliya akademiyasi magistranti

ibratovulugbek@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19973180>

Hozirgi global iqtisodiy integratsiya va moliyaviy bozorlarning jadal rivojlanishi sharoitida korxonalarda moliyaviy hisobotlarni yuritish, ularning shaffofligi va ishonchliligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, davlat ulushi yuqori bo'lgan yirik strategik korxonalarda moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligi nafaqat ichki boshqaruv samaradorligini, balki investitsion jozibadorlikni ham belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, "O'ztransgaz" aksiyadorlik jamiyati misolida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish va ularni takomillashtirish masalalari alohida dolzarflik kasb etadi.

"O'ztransgaz" AJ O'zbekiston Respublikasining gaz sanoatida muhim o'rin egallovchi yirik davlat korxonasi bo'lib, uning asosiy faoliyati tabiiy gazni transportirovka qilish, saqlash va tranzit qilishdan iborat. 2022-yilda amalga oshirilgan tarkibiy islohotlar natijasida korxonada faoliyati tubdan qayta tashkil etilib, gazni sotib olish va realizatsiya qilish funksiyalari alohida tashkil etilgan subyektga o'tkazildi hamda korxonada magistral gaz transport tizimining yagona operatoriga aylandi. Mazkur o'zgarishlar korxonaning moliyaviy natijalari, daromadlar tuzilmasi va xarajatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Moliyaviy hisobotlar xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida yuritilib, bu korxonaning global moliyaviy tizimga integratsiyalashuvini ta'minlaydi. Hisob siyosatida zaxiralar eng kam qiymat tamoyili asosida baholanadi, ya'ni ularning tannarxi va realizatsiya qilish mumkin bo'lgan sof qiymatidan eng past qiymatda aks ettiriladi. Materiallar va ehtiyot qismlar FIFO usulida, gaz zaxiralari esa o'rtacha tortilgan qiymat usulida hisobga olinadi. Moliyaviy instrumentlar dastlab adolatli qiymatda tan olinib, keyinchalik amortizatsiyalangan qiymatda hisobga olinadi. Ushbu yondashuvlar korxonada moliyaviy natijalarining haqqoniy aks ettirilishini ta'minlaydi.

Daromadlarni tan olish mexanizmi ham xalqaro standartlarga mos ravishda tashkil etilgan bo'lib, daromad mahsulot yoki xizmat ustidan nazorat xaridorga o'tgan paytda e'tirof etiladi. Gaz realizatsiyasida daromad yetkazib berish momentida tan olinadi, transport xizmatlarida esa xizmat ko'rsatish jarayonida bosqichma-bosqich shakllanadi. Bu esa moliyaviy natijalarni yanada real va aniq aks ettirish imkonini beradi.

2023-2024-yillar moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili korxonada faoliyatida ijobiy o'zgarishlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, 2024-yilda daromadlar 15 866 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 3 020 mlrd so'mga oshgan. Bu o'sish asosan gaz transporti xizmatlarining kengayishi bilan bog'liq bo'lib, korxonaning asosiy faoliyat yo'nalishi transport xizmatlariga yo'naltirilganini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish xarajatlari ham 6 663 mlrd so'mga yetib, 877 mlrd so'mga oshgan. Bu esa operatsion faoliyat hajmining ortganligini ko'rsatadi.

Xarajatlar tarkibida gaz xarajatlari, ish haqi va amortizatsiya asosiy ulushni egallaydi. Bu korxonaning kapital va resurs talabchan tarmoqqa mansubligini bildiradi. Elektr energiya xarajatlarining kamayishi esa energiya samaradorligi oshganini yoki xarajatlarni

optimallashtirish choralari ko'rilganini anglatadi. Shu bilan birga, xizmatlar va materiallar xarajatlarining ortishi ishlab chiqarish jarayonlarining kengayganini ko'rsatadi.

Ma'muriy xarajatlarning kamayishi boshqaruv tizimining samaradorligi oshganini bildiradi. Ayniqsa, soliqlar bo'yicha xarajatlarning kamayishi fiskal siyosatdagi o'zgarishlar yoki hisob-kitob tizimidagi takomillashtirishlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Konsalting va audit xizmatlari xarajatlarning oshishi esa korxonaning moliyaviy nazorat va tashqi auditga bo'lgan e'tiborining kuchayganini ko'rsatadi.

Davlat subsidiyalarining 2023-yildagi 659 mlrd so'mdan 2024-yilda 19 mlrd so'mga kamayishi korxonaning davlat qo'llab-quvvatlashidan bosqichma-bosqich chiqib, bozor tamoyillariga moslashayotganini anglatadi. Bu holat uzoq muddatda moliyaviy mustaqillikni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin, biroq qisqa muddatda moliyaviy bosimni oshirishi ehtimoli ham mavjud.

Foyda solig'i ko'rsatkichlarining keskin oshishi korxonada foydasining ortganini bildiradi. 2024-yilda jami soliq 1 232 mlrd so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan ancha yuqori bo'lgan. Bu esa moliyaviy natijalarning yaxshilanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, debitorlik qarzlarning keskin oshishi (9 671 mlrd so'm) korxonada oldida muhim muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu holat pul oqimlarining sekinlashishiga va likvidlik darajasining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, yirik kontragentlar bilan hisob-kitoblarning kechikishi moliyaviy risklarni oshiradi. Biroq kredit yo'qotishlari zaxirasining kamayishi qarzdorlikni boshqarish tizimi ma'lum darajada yaxshilanganini ko'rsatadi.

Zaxiralar hajmining kamayishi esa resurslardan samarali foydalanish va ortiqcha zaxiralarni qisqartirish natijasi bo'lishi mumkin. Bu aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini oshiradi va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlaydi.

Zamonaviy sharoitda moliyaviy hisobotlarni yuritishda axborot texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega. ERP va BI tizimlarini joriy etish orqali moliyaviy ma'lumotlarni real vaqt rejimida kuzatish va tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Bu esa boshqaruv samaradorligini oshiradi va xatoliklarni kamaytiradi.

Ichki audit tizimini takomillashtirish ham muhim yo'nalishlardan biridir. Ichki audit moliyaviy nazoratni kuchaytirish, xatoliklarni aniqlash va ularni oldini olishda muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, xodimlarning malakasini oshirish, ayniqsa IFRS bo'yicha bilimlarini kengaytirish moliyaviy hisobotlar sifatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "O'ztransgaz" AJda moliyaviy natijalar ijobiy dinamikaga ega bo'lsa-da, ayrim muammolar ham mavjud. Xususan, debitorlik qarzlarning ortishi, likvidlik bilan bog'liq risklar va moliyaviy oqimlarni boshqarish masalalari dolzarbligicha qolmoqda.

Umuman olganda, moliyaviy hisobotlarni takomillashtirish kompleks yondashuvni talab etadi. Bu jarayon faqat buxgalteriya hisobini rivojlantirish bilan cheklanib qolmay, balki boshqaruv tizimi, axborot texnologiyalari, ichki nazorat va kadrlar salohiyatini ham o'z ichiga oladi. Shu orqali korxonaning moliyaviy barqarorligi ta'minlanadi va uning uzoq muddatli rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratiladi.

1-jadval.

"O'ztransgaz" AJ moliyaviy barqarorlik va risk ko'rsatkichlari tahlili (2023-2024 yy.)

Ko'rsatkichlar	2024-yil (mlrd so'm)	2023-yil (mlrd so'm)	O'zgarish
Debitorlik qarzlari (jami)	9 671	2 395	+7 276
Kredit yo'qotishlari zaxirasi	(1 119)	(1 987)	+868
Pul mablag'lari (banklarda)	120	160	-40
Kreditlar va qarzarlar (jami)	4 504	9 553	-5 049
Kreditorlik qarzlari (jami)	11 961	17 000	-5 039
Qisqa muddatli majburiyatlar	15 001	17 816	-2 815
Valyuta riski ta'siri ($\pm 10\%$)	± 232	$\pm 2 152$	↓
Moliyaviy faoliyatdan pul oqimi	(5 111)	(259)	-4 852

Manba: "O'ztransgaz" AJning konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2024-yilda korxonaning moliyaviy holatida sezilarli strukturaviy o'zgarishlar yuz bergan. Eng avvalo, debitorlik qarzlarning keskin oshishi (+7 276 mlrd so'm) korxonaning moliyaviy resurslari muomaladan chiqib qolayotganini ko'rsatadi. Bu esa likvidlik darajasiga salbiy ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, kredit yo'qotishlari zaxirasining kamayishi qarzдорlikni baholash va boshqarish tizimi takomillashganini anglatadi. Bu holat korxonaning risk-menejment tizimi samaradorligi oshayotganini ko'rsatadi.

Pul mablag'larining kamayishi (-40 mlrd so'm) va moliyaviy faoliyatdan manfiy pul oqimi (-5 111 mlrd so'm) korxonada likvidlik bilan bog'liq muammolar mavjudligini ko'rsatadi. Biroq kreditlar va kreditorlik qarzlarning sezilarli darajada kamayishi korxonada qarz yukini qisqartirish siyosatini olib borayotganini bildiradi.

Valyuta riskining keskin kamayishi ($\pm 2 152$ dan ± 232 gacha) esa tashqi iqtisodiy risklarning kamayganini va valyuta pozitsiyasining optimallashtirilganini ko'rsatadi.

Umuman olganda, korxonada moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash bo'yicha ijobiy o'zgarishlar mavjud bo'lsa-da, debitorlik qarzlari va likvidlik bilan bog'liq muammolar hali ham dolzarbligicha qolmoqda.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son qarori "Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga o'tishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida".
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Buxgalteriya hisobi to'g'risida" (yangi tahrirda, 2016 yil).
4. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Milliy buxgalteriya hisobi standartlari (MBHS), Toshkent, so'nggi tahrirlar.
5. International Accounting Standards Board. International Financial Reporting Standards (IFRS), London, so'nggi nashrlar.
6. International Federation of Accountants. International Standards on Auditing (ISA), New York, so'nggi nashrlar.
7. Kieso, D., Weygandt, J., Warfield, T. Intermediate Accounting, Wiley, 2022.